

Ismaylova Ra'no Nuraevna*Alfraganus universiteti,**Psixologiya kafedrası dosenti, psixologiya fanlari nomzodi*

PSIXOLOGLARNING PROFESSIONAL TAFAKKURI

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologning kasbiy malakasining asosiy tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur hodisasi ko'rib chiqiladi. Tafakkurning bu turini aniqlashga oid nazariy yondashuvlar, uning tarkibiy elementlari va asosiy xususiyatlari ko'ratilib o'tilgan. Bunday tafakkur turining shakllanishi va rivojlanishi kasbiy faoliyat samaradorligiga, hamdardlik qobiliyatiga, ijtimoiy vaziyatlarni anglashga, qarorlar qabul qilish axloqiyligiga hamda mijozlar va hamkasblar bilan samarali munosabatlar o'rnatishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: psixolog, kasbiy faoliyat, professional tafakkur, ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur, mijoz, axloq, hamkasblar, ijtimoiy institutlar, hamkorlik.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МЫШЛЕНИЕ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация: В данной статье рассматривается феномен сотсиально ориентированного мышления как основной компонент профессиональной компетентности психолога. Показаны теоретические подходы к определению этого типа мышления, его структурные элементы и основные характеристики. Анализируется, как формирование и развитие такого типа мышления влияет на эффективность профессиональной деятельности, способность к эмпатии, понимание сотсиальных ситуаций, этику принятия решений и установление эффективных отношений с клиентами и коллегами.

Ключевые слова: психолог, профессиональная деятельность, профессиональное мышление, сотсиально ориентированное мышление, клиент, этика, коллеги, сотсиальные институты, сотрудничество.

PROFESSIONAL THINKING OF PSYCHOLOGISTS

Annotation: This article examines the phenomenon of socially oriented thinking as a key component of a psychologist's professional competence. Theoretical approaches to defining this type of thinking, its structural elements, and key characteristics are presented. It analyzes how the formation and development of this type of thinking influences professional effectiveness, empathy, understanding of social situations, decision-making ethics, and the establishment of effective relationships with clients and colleagues.

Key words: Key words and concepts: psychologist, professional activity, professional thinking, socially oriented thinking, client, ethics, colleagues, social institutions, collaboration.

Kirish. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda psixologiya sohasida pedagogik kadrlar tayyorlash, amaliyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizdagi 10 ta oliy ta'lim muassasasida "Psixologiya," 19 ta oliy ta'lim muassasasida "Pedagogika va psixologiya," tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida "Tibbiy psixologiya" va "Tibbiy psixoterapiya" yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 5 noyabrda qabul qilingan "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-989-sonli Qonuni bilan aholiga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy prinsiplari belgilandi: qonuniylik, ixtiyoriylik, ijtimoiy himoyalanganlik, inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish, professionallik va ma'lumotlarning maxfiyligi.[1]

Ijtimoiy-madaniy sohadagi global o'zgarishlar, shuningdek, jamiyat duch kelayotgan yangi vazifalar va muammolarning paydo bo'lishi tafakkur jarayonlarining o'zgarishiga, atrof-muhitni yangicha idrok etishga hamda dunyoni va ijtimoiy hayotni o'zgartirishga qaratilgan faoliyatga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib keldi.

Odamlar orasida muloqot turli xil shakllarda kechadi: uchrashib gaplashadilar, bir-birlarini tushunib, yoki ba'zan tushunishmaydilar. Oddiy kundalik hayotda barchasi ancha oddiy ko'rinadi: agar seni tushunsam, muloqot yaxshi va mazmunli kechadi, ammo tushunmasam, u qiyinlashib boradi. Bu holatda nizolar paydo bo'lishi va odamlar orasida masofa yuzaga kelishi mumkin. Tushunuvchilik yaqinlikka olib kelsa, tushunmovchilik aksincha uzoqlashishga sabab bo'ladi. Ammo nazariy jihatdan, bu muammo ancha murakkab bo'lib, psixologiyada to'liq tadqiq etilmagan. Psixologlar uchun esa vaziyat yanada chuqurroq: ular mijozning ruhiy og'rig'i va noqulayligini yetib borib, aniq va diqqat bilan tushunishi lozim. Shu ham borki, inson – bu faqat bilish ob'ekti emas, balki o'ta murakkab sub'ektdir. Uning o'zi alohida bir noyoblik ko'rinishidir va fanda to'liq tadqiq qilinmagan. Shuning uchun, boshqa odamning ichki dunyosiga yaqinlashishga harakat qilsak ham, uni o'zimizda aynan takrorlash imkoniga yo'l qo'yilmaydi. Inson sub'ekt va shaxs sifatida doimo o'zini turli shakllarda namoyon qiladi: xatti-harakatlari, nutqi, yuz ifodasi, imo-ishoralari va boshqalar orqali. Uning ichki psixologik mohiyatining bu tashqi ko'rinishlari aynan uning faolligi natijasidir. Ammo bunday belgilarning psixologik mazmunini anglash juda

murakkab, chunki ular turli ma'nolarni o'z ichiga oladi. Insonning tashqi alomatlarini to'g'ri talqin qilish tajribada ularga tegishli psixik xususiyat va jarayonlarni aniqlab, tegishli hayotiy vaziyatlarning kontekstida tushunish bilan bog'liq. Psixolog insonning psixologik mohiyatini yaxshi tushunishga qodir bo'lishi lozim, chunki bu holat boshqa shaxsni to'g'ri anglab yetish uchun ishonchli asos hisoblanadi. Psixologning tafakkuri, ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv xususiyatlariga ega bo'lsa, kasbiy vazifalarni samarali bajarishga ko'maklashadigan qimmatli manba bo'lishi mumkin. Oliy kasbiy ta'limning ta'lim standartlari doirasida psixologlar uchun zamonaviy ijtimoiy va madaniy muhit rivojlanishining asosiy qonunlarini amalda qo'llay olish, ijtimoiy-madaniy hodisalarni tahlil etish uchun tarixiy usulni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy va ijtimoiy-psixologik masalalarni yechishda ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlarning asosiy tamoyillari hamda usullarini qo'llash kabi umummadaniy kompetensiyalar belgilangan.[2]

Shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurni psixologning o'z faoliyatida tayanadigan kasbiy-shaxsiy mexanizm sifatida ko'rib chiqish muhim hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda psixologlarning ijtimoiy yo'naltirilgan fikrlash qobiliyatini tadqiq qilish nafaqat ilm-fanga bo'lgan qiziqish, balki jamiyatning tuzilmaviy o'zgarishlari va kasbiy me'yorlarning

yangi talablariga javob sifatida ham ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda jadallik bilan kechayotgan raqamlashtirish ijtimoiy xavotirning keskin kuchayishi va shaxsiylik inqirozi tufayli bu mavzu yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Ushbu mavzuning ahamiyatini belgilaydigan asosiy jihatlar:

Birinchidan. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar Hozirgi zamonaviy jamiyat yuqori darajada noaniqlik va tezkor o'zgaruvchan. Muloqotning raqamlashtirilishi: Psixologlarning ijtimoiy yo'naltirilgan fikrlashi mijozlarning "raqamli shaxsiyati" xususiyatlarini, shuningdek, virtual guruhlardagi o'zaro munosabatlardagi o'ziga xos tafovutlarni tushunishga yordam berishi lozim.

Ikkinchidan. Global inqirozlarga javob: Xavotir, depressiya, jarohatdan keyingi stress buzilishi, migratsiya jarayonlari yoki shaxsiy tayanch nuqtalari yo'qotilishini boshdan kechirayotgan mijozlar bilan samarali ishlash psixologdan klinik bilimlarning yondoshishi bilan bir qatorda, mijoz uchun, shuningdek, "ijtimoiy munosiblik to'qimasi"ni tiklash borasida ijtimoiy fikr yuritish qobiliyatini talab qiladi.

Uchinchidan. Psixologning fikrlashi o'ziga xos bo'lib, ijtimoiy intellekt va empatiya, prognostik funksiyasi- ehtimoliy nizolarning oldini olish yuzasidan choralar ko'rish imkoniyatiga ham erishishga ko'mak beradi, madaniy sezgirlik- turli millat, din yohud ijtimoiy guruh vakillari bo'lgan mijozlar bilan ishlashda

shovqinsiz, o'ziga xos madaniy ehtiyojlarga hurmat bilan yondashish nihoyatda ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan. Kasbiy deformatsiyani yengishda refleksiya, o'zaro ta'sirning ijtimoiy mexanizmlarini chuqurroq tushunish psixologga shaxsiy kechinmalar bilan kasbiy vazifalarni tenglashtirish va bir-birini to'ldiruvchi tarzda o'zlashtirishga imkoniyat beradi. O'z-o'zini adekvat baholash psixologga jamiyatdagi roliga nisbatan sog'lom va realistik yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa "qutqaruvchi sindromi"ning paydo bo'lish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Tadqiqotning maqsadi. Psixolog faoliyati samaradorligiga ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurning o'ziga xos ta'sirini o'rganish va amaliyotchi mutaxassislarining kognitiv-shaxsiy rivojlanishini yanada samarali olib borish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili.

S.L. Rubinshteyn "tafakkur nihoyatda uzviy, qayta tiklanuvchi jarayon bo'lib, u analiz va sintez shaklida amalga oshiriladi... u hamisha borliqni bilishga qaratilgan deb e'tirof etadi. A.V.Brushlinskiyning sub'ektiv-faoliyatli yondashuviga ko'ra, psixologning kasbiy tafakkuri kognitiv jarayonlar va shaxsiy ma'nolar bilan uzviy bog'liq bo'lgan yaxlit sub'ektning faoliyati sifatida qaraladi. Ijtimoiy yo'nalganliklik kontekstida bu shuni anglatadiki, empatiya va axloqiy

ko'rsatmalar intellektga tashqi qo'shimchala sifatida emas, balki "ichki sharoit" sifatida namoyon bo'ladi, ular orqali, S.L.Rubinshteyn bo'yicha kasbiy masalalar hal etiladi.

Dj.Gilford birinchi bo'lib, boshqa odamlarning fikrlari, his tuyg'ulari va niyatlarini tushunish qobiliyatini aqlning alohida turi sifatida ajratib ko'rstadi. Psixologlar faoliyati kontekstida bu shuni anglatadiki, kasbiy fikrlash nafaqat mantiq, balki "ijtimoiy belgilar"ni tushunish qobiliyati hamdir.

D.Goulmanning fikricha, psixolog (va yetakchi) o'z kasbiy mahoratini muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarish uchun quyidagi to'rt asosiy tamoyilga tayanilishi lozim: O'z-o'zini anglash - terapiya jarayonida shaxsiy hissiyotlar ta'sirida turli "fon hayotiyiligini" hosil qilmaslik uchun ularni to'g'ri xis etgan holda anglash. O'z-o'zini nazorat qilish - axloqiy barqarorlik va vazminlikni saqlash qobiliyati. Empatiya - ijtimoiy vaziyatlarning mohiyatini chuqur tushunish va his qilish donishi. Ijtimoiy ko'nikmalar- atrofda odamlar bilan samarali munosabatlarni shakllantirish va boshqara olish iqtidori. Eng muhim jihat shundaki, Goulman empatiyasiz ijtimoiy intellekt sovuq va hatto vayronkor tusga kirishi mumkinligini alohida qayd etib o'tadi.

Kasbiy psixologik muloqot jarayonida dunyoning ichki manzarasini anglash to'g'risida so'z yuritilganda, biz ko'pincha kasbiy psixologik fikrlash tushunchasidan foydalanamiz. Psixologik tafakkurni

esa intellektual, operatsional va shaxsiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan qiyin va serqirra aqliy faoliyat sifatida tasvirlaymiz. Mazkur faoliyat asosan kasbiy psixologik muammolarni yechishga yo'naltirilgandir. K.M. Romanov fikriga ko'ra, psixologik tafakkurning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: zarur bilimlar tizimini tezkorlik bilan aktuallashtirish. Psixologik vazifalarni hal qilish ko'pincha juda qat'iy vaqt oraliq'ida sodir bo'ladi, shuning uchun sub'ektda o'ylash va qaror qabul qilish uchun vaqt qolmaydi. Ko'p masalalarni yechishda ehtimoliy yondashuv va optimal yechimlarni tanlash, qaror qabul qilish vaziyatining yuqori noaniqligi, murakkabligi, to'liq emasligi va qarama-qarshiligi kabi masalalar turadi.[8]

Yu. I. Kulyutkin, V. I. Slobodchikov, I.S. Yakimanskayalar fikricha ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur - bu insonning o'z hayotiy faoliyatini belgilaydigan, hayotning barcha sohalarida mustaqil qarorlar qabul qilishga intilish hamda bu qarorlarning natijasi uchun nafaqat o'zi oldida, balki jamiyat oldida ham mas'uliyatni his etish bilan uyg'unlashgan fikrlash tarzidan iboratdir.

Yu.I. Kulyutkin ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurning xususiyatlarini quyidagicha ajratadi:

- zamonaviy muammolarning barchasini ularning ijtimoiy kontekstida keng miqyosda ko'ra olish qobiliyati;

- dunyoni yaxlit global tizim sifatida anglash;

- tanqidiy fikrlash, ya'ni muammolarni ularning mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy oqibatlarini hisobga olgan holda samarali hal qilish qobiliyati;

- amaliyotchilik, ya'ni dunyoda sodir bo'layotgan barcha voqealarni real baholash hamda amaliy jihatdan maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilish va harakatlanish qobiliyati;

- kelajakka yo'naltirilganlik, ya'ni bashorat qilish qobiliyati. [5]

Psixologlarning kasbiy tayyorgarligi sharoitida ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurning yuqorida sanab o'tilgan sifatlarini rivojlantirishning mumkin bo'lgan yo'llarini qanday aniqlash mumkin, degan savol tug'iladi.

Oliy psixologik ta'lim sohasidagi asosiy muammolardan biri o'qitishning an'anaviy (ko'proq akademik) yo'nalishda bo'lishi, ijtimoiy amaliyot masalalarini hal etishda fanlararo yondashuvga asoslangan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tamoyilining mavjud emasligi hisoblanadi.

S.V.Nujnova kasbiy tafakkurni "tanlangan mutaxassislik sohasidagi kasbiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va mantiqiy hamda ijodiy fikrlash operatsiyalarini o'zlashtirishni ta'minlaydigan psixologik jarayonlar majmui" deb ta'riflaydi. [6]

Psixologlarning kasbiy tafakkuriga kelsak, T.A. Vaulina kasbiy-psixologik tafakkurni o'rganib chiqib, uni keyingi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi kasbiy

faoliyatning yangi hosil bo'lgan fikrlash faoliyati deb ta'riflaydi.

Qator ilmiy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy tafakkuriga e'tibor berilgan, psixologlarning professional tafakkuri mavzuda keng doirada tadqiqotlar olib borilmagan. Yuqorida bayon etilganlar bilan bog'liq holda, psixologlarni kasbiy tayyorlashda ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur sifatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan samarali texnologiyalarni izlash muammosi vujudga keladi. Ye.V. Bicheva bo'lajak psixolog talabalarda farazlarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari majmuasini taklif etadi.

A.A.Okuney ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurni rivojlantirish texnologiyalaridan biri sifatida pedagogik ustaxonalarni tavsiya etib, bu yagona hissiy va mazmunli maydonni yaratadigan ko'p darajali muloqotni tashkil etishning shunday shakli, u keyinchalik harakat yo'nalishini, kelajakdagi bilimning tuzilishini belgilab berishi mumkin deb e'tirof etadi.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundaki, u psixologning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini kognitiv qobiliyatlar (intellekt) va hissiy javoblar (empatiya) bilan birgalikda kasbiy-axloqiy kodeks orqali qat'iy belgilab berilgan yaxlit tizim sifatida konseptuallashtirishni nazarda tutadi. Muallif psixolog faoliyati samaradorligini alohida ko'nikmalarining rivojlanishi bilan emas,

balki kasbiy vazifalarni hal qilish jarayonida ushbu ko'nikmalarining integrativ sintezi bilan bog'liq ekanligini asoslab beradi.

Tadqiqotning ob'ekti. Insonlarga yordam beruvchi kasblar kontekstida shaxsning kasbiy tafakkuri tizimli psixologik hodisa sifatida tanlandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Aksiologik tahlil kasbiy qarorlar qabul qilish jarayonida qadriyatlar va etika asosida yondashishni nazarda tutadi. Funktsional tahlilda empatiya ma'lumot qabul qilish jarayonida "kirish kanali" rolini bajarsa, ijtimoiy intellekt esa ushbu ma'lumotni qayta ishlashda "protessor" vazifasini o'taydi. Ideallashtirish usuli esa kelajakda tavsiyalar tayyorlash uchun professional tafakkurning "etalon" modelini yaratishga qaratilgan.

Asosiy qism. Psixologlarning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkuri - bu insonning xulq-atvorini, fikrlari va his-tuyg'ularini ijtimoiy guruhlariga mansublik nuqtai nazaridan tushunish, tahlil qilish va talqin etish qobiliyatidir. Bu o'z kasbiy faoliyatida ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olishni ham o'z ichiga oladi. Bunday tafakkur boshqa odamlarning haqiqiy, tasavvur qilingan yoki taxmin qilingan mavjudligi shaxsga qanday ta'sir ko'rsatishini anglashni va bu bilimlarni amaliy muammolarni hal qilishda qo'llashga tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bu ijtimoiy yo'naltirilgan dunyoqarash doirasida shaxsni rivojlantirishga yordam beradi. Quyida psixologlarning ijtimoiy

yo'naltirilgan tafakkurining asosiy jihatlarini xaqida so'z yuritamiz.

Psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkuri (IYT) – bu jamiyat va alohida shaxsning ijtimoiy munosabatlari, ehtiyojlari hamda atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini anglashga qaratilgan intellektual va emotsional jarayonlarning murakkab tizimi hisoblanadi. Bo'lajak mutaxassis uchun bu faqat "mehribonlik" qobiliyati emas, balki mijozlar va jamoat institutlari bilan samarali muloqotni ta'minlovchi kasbiy mahorat va kompetensiyadir.

Psixologlar faoliyatida asosiy jihatlardan biri ijtimoiy kontekstga e'tibor qaratish bo'lib, psixologlar insonni alohida emas, balki ijtimoiy guruhlarining bir qismi sifatida ko'rib, bu guruhlarining uning xulq-atvori, fikrlari va his-tuyg'ulariga ta'sirini o'rganadilar. Psixolog mijoz yashaydigan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarni hisobga olishi lozim. Bu omillar uning xulq-atvori va ruhiy holatiga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurining yana bir muhim jihatlaridan biri bu ijtimoiy mas'uliyatdir. Bu nafaqat ijtimoiy qonuniyatlarni tushunish, balki bu bilimlarni ijtimoiy muammolarni hal qilish va ijtimoiy yo'naltirilgan model doirasida boshqa odamlarning rivojlanishiga hissa qo'shish uchun qo'llashdir. Ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuv nafaqat individual mijozlar bilan, balki guruhlar

bilan ishlashni ham o'z ichiga oladi. Psixologlar treninglar, guruh terapiyalari va ishtirokchilar o'rtasida o'zaro ta'sir va qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan boshqa tadbirlarni o'tkazishlari mumkin.

Ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurda tahlil va talqin etish olish imkoniyati ya'ni ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda voqealar, odamlarning xatti-harakatlari va o'z xatti-harakatlarini talqin qilish qobiliyatidir. Bunda shaxsning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri tahlil qilinadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur tuzilmasi o'z ichiga o'quv jarayonida shakllanadi va rivojlanadigan bir qancha muhim tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

Kognitiv komponent: Ijtimoiy muammolarni tahlil qilish malakalari, inson xulq-atvoridagi sabab va oqibatlar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunish hamda ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni anglash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Empatik komponent: Kasbiy pozitsiyani saqlagan holda boshqa shaxsning holatini his qilish va uni tushunish, uning his-tuyg'ulariga hamdard bo'lish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Aksiologik komponent: Insonparvarlik, yordam berishga tayyorlik, altruizm va ijtimoiy adolatga intilish kabi qadriyatlarga asoslangan yondoshuvni shakllantiradi.

Refleksiv komponent: Psixolog o'z ijtimoiy munosabatlarini kuzata bilishi, ularning odamlar bilan ishlash jarayoni va samaradorligiga qanday

ta'sir qilishini ongli ravishda baholay olishini nazarda tutadi.

Psixolog mutaxassis sifatida shakllanish jarayonida albatta, jamiyatni kundalik hayotiy tushunishdan kasbiy darajada anglashgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadilar.

Moslashish. Yosh mutaxassis hamjihatlikda yashashga intiladi, guruh qoidalariga rioya qiladi, lekin yordam berishda faol tashabbus ko'rsatmagan holda sust haraktda bo'ladi.

Faol harakat. Samarali yordam ko'rsatishga bo'lgan ongli intilish shakllanadi, yosh mutaxassis ijtimoiy muammolarning psixologik tomonlarini idrok eta boshlaydi.

Kreativ o'zgartirishga qaratilgan yondashuv. Ijtimoiy ziddiyatlarni hal etishda psixolog insonparvarlik qadriyatlarini samarali joriy etish va muammolarga yangi, innovatsion yechimlar taklif qilish salohiyatiga ega bo'ladi. Aynan shu yo'lni bosib o'tish yosh mutaxassisni kelajakda amaliyotda samarali ishlashlari uchun poydevor bo'ladi.

Munozara. O'tkazilgan nazariy tahlil tafakkurning sub'ektivligiga doir klassik qarashlarni (masalan S.L.Rubinshteyn va A.V Brushlinskiy) tasdiqlaydi, biroq ijtimoiy yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan boyitadi.

An'anaviy modellardan farqli ravishda, kasbiy tafakkur asosan amaliy jarayon sifatida tahlil qilinadi, biz taklif etgan model esa axloqiy va

aksiologik komponentlarning ustuvor ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, biz ijtimoiy intellekt sohasidagi tadqiqotlarni (J. Gilford, D. Gulman) qo'llab-quvvatlaymiz, ammo psixolog uchun ijtimoiy intellektning o'zi yetarli emasligini bildik. Agar ijtimoiy intellekt axloqiy me'yorlar bilan chambarchas bog'lanmasa, u manipulyatsiya vositasiga aylanishi ehtimoli bor, bu esa yordam berish professionalining mohiyati va maqsadiga mutlaqo ziddir.

Amaliyotda mavjud metodikalarni va usullarni psixolog mijoz mansub bo'lgan ijtimoiy guruhga qarab, ish usullarini moslashtirishi kerak. Masalan, yoshlar bilan ishlash yondashuvlari katta yoshlilar bilan ishlashdan farq qilishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy omillarning ta'siri haqidagi bilimlardan o'z faoliyatida, xoh maslahat berish, xoh o'rganish yoki ilmiy tadqiqot bo'lsin, muayyan vazifalarni hal qilish uchun foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Psixologlarning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurda mijozlarda mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, muloqotchanlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini shakllantirishga, shuningdek, ularning jamiyatda o'z taqdirini o'zi belgilashiga ko'maklashishga qaratilgan. Mijozlarga ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan muloqot, nizolarni hal qilish va hamkorlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishi kerak bo'ladi. Ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurda

psixologdan mijozni uning o'ziga xos ijtimoiy kontekstida tushunish uchun yuqori darajadagi empatiya va faol tinglash qobiliyatini talab qiladi.

Shuningdek ijtimoiy institutlar bilan ishlash, psixologlar mijozlarga har tomonlama yordam ko'rsatish uchun maktablar, shifoxonalar va nodavlat notijorat tashkilotlari kabi turli ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik qila olish imkoniyatiga ega bo'lishlari ham lozim.

Xulosa. Ijtimoiy yo'naltirilgan fikrlash psixolog amaliyotida haqiqatan ham muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Psixologiyadagi ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur insonni jamiyatning ajralmas qismi sifatida tushunish zarurligini ta'kidlaydi. Bu nafaqat mijozning shaxsiy muammolari bilan ishlashni, balki uning hayotiga ta'sir etuvchi keng qamrovli ijtimoiy omillarni tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, moddiy qiyinchiliklar, oilaviy munosabatlar, madaniy to'siqlar va boshqa jihatlar ruhiy salomatlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qulay muhitni rag'batlantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ ishonchni shakllantirish: psixolog mijoz o'zini xavfsiz his qiladigan va ochiq bo'lishga tayyor bo'ladigan muhitni yaratishi lozim;

➤ qo'llab-quvvatlash va ishtirok etish: mijozlarga o'zlarining ahamiyatini his qilish va muammolarini hal etishda faol ishtirok etish imkonini berish orqali ularni davolash jarayoniga jalb etish muhimdir;

➤ hamjamiyatni rivojlantirish: psixolog mijozlar tajriba almashishi va

bir-birini qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan ijobiy hamjamiyatlar shakllanishiga ko'maklashishi mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkur psixologlarga nafaqat o'z mijozlarini chuqurroq tushunishga, balki ularning muvaffaqiyatli rivojlanishi va jamiyatga moslashishi uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu psixologning ishini ruhiy salomatlikka nisbatan chuqurroq va keng qamrovli yondashuvga yo'naltiradi, bu esa pirovard natijada mijozlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida psixolog mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz:

- Bo'lajak psixologlarda ijtimoiy fikrlash va axloqiy qaror qabuli uchun zarur bo'lgan fundamental tushunchalarni rivojlantirish.

- Axloqiy dilemmalarga asoslangan keys usullarni joriy etish. Muammolarni chuqur tahlil qilishga mo'ljallangan, aniq to'g'ri javobga ega bo'lmagan holatlarni o'rganish. Bu talabalarga bir vaqtning o'zida ijtimoiy intellekt va axloqiy prinsiplarni amalga oshirish imkonini beradi.

- Kognitiv treninglar: Kognitiv empatiya darajasini oshirish uchun mo'ljallangan maxsus mashqlar. Ular yordamida talabalao kasbiy doirani saqlab qolgan holda, boshqaning o'rniga o'zlarini quyish, refleksiya qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- Noverbal semiotika buyicha amaliy mashg'ulotlar:

Talabalarda mikroifodalarni va turli imo-ishoralarni to'g'ri aniqlash va tahlil qilish mahoratini rivojlantirish. Bu Dj. Gilford asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy intellekt konsepsiyasiga asoslangan.

Amaliyotchi psixologlar uchun tavsiyalar:

- Kasbiy kuyish oldini olish va intervensiyalar aniqligini oshirish maqsadida empatik rezonan monitoringini amalga oshirish, ya'ni mijoz bilan muloqotda o'z his-tuyg'ularini muntazam ravishda aks

ettirish, o'z proeksiyalarini xaqiqiy hamdardlikdan ajratish.

- Keyslarning axloqiy taftishini amalga oshirish ya'ni murakkab holatlarni nafaqat texnika, balki kasbning qadriyat yo'nalishlariga rioya qilish nuqtai nazaridan tahlil qilish.

- Prognostik qobiliyatlarni rivojlantirish, terapevtik ta'sirning uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish mashqlari bilan shug'ullanish (ijtimoiy prognozlash).

Adabiyotlar ro'yhati:

1. "Aholiga psixologik yordam ko'rsatish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.11.2024 yildagi O'RBQ-989-sonli Qonuni// <https://www.lex.uz/uz/docs/7196808>
2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari. 210 000-Sosiologiya va psixologiya ta'lim sohasining davlat ta'lim standarti. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 14.08.dagi 418-sonli buyrug'i. O'zDSt-2020
3. Umarov, B. M. Talaba yoshlar sotsial intellektining oziga xos xususiyatlari. *Psixologiya Uchrediteli: Buxarskiy gosudarstvennyy universitet*, (3), 56-59.
4. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.
5. Bilolova, Z., & Allaberganova, N. (2024). Oilaviy ruhiy zo'riqish holatlarida psixologik xizmatni tashkil etish yo'nalishlari. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 2(2), 21-27.
6. Davlyatovna, K. G. (2024). Characteristics of the process of biological growth and development of the child. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(5-3), 188-192.
7. Kuldasheva, G. D. (2026). Effektivnye modeli sifrovoy transformatsii vysshego obrazovaniya. *Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire*, 84(3), 451-457.
8. Kuldasheva, G. D. (2026). Innovatsionnye idei kak rezultat razvitiya obrazovatelnoy i nauchnoy sredy. *Obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire*, 84(4), 3-9.

9. Makhmudjanovna, N. M., Tairovna, T. F., Kurbanovna, A. D., Kurbanovna, D. A., Abdulkhaevna, Y. K., & Tashaliyeva, S. (2026). The role of critical thinking and soft skills in enhancing the social activity of female students. *Scientific culture*, 12(5 part 1), 748.
10. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
11. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
12. Shamshiyevna, A. N., & Tairovna, T. F. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rasm chizish orqali art terapiya metodlari. *Byulleten pedagogov novogo Uzbekistana*, 3(10), 38-41.
13. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.
14. Ahmadjonova, N. A. (2026). Harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikning gender jihatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(20), 725-728.